

## TALABA YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY TILNING ROLI

Qadimgi ota-bobolarimiz yoshlari tarbiyasiga juda ehtiyojkorlik bilan yondoshib kelganlar. Ta'lim-tarbiyaga qaratilgan jamiki say'i-harakatlar asosan milliy urf-odatlarga tayangan holda olib borilganligi bizga manbalardan ma'lum.

Bugungi kunda har bir oilada, ta'lim-tarbiya maskanlarida ham yoshlari tarbiyasini takomillashtirishda milliy urf-odatlarga, qadriyatlarga, milliy tilimizga tayanishimiz ijobiy pedagogik samara beradi.

Milliy qadriyatlar, urf-odatlari,

milliy tilimiz yoshlari tarbiyasida milliy tilni, milliy ruhiyatni milliy urf-odatlarni, milliy an'analarining rivojini takomillashtirishlarini ta'minlaydi.


Yuqorida qayd etilgan tushunchalardan birini alohida o'rganib chiqsak, unga, aytaylik, milliy tilning ahamiyati yoshlari dunyoqarashining takomillashishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Til tafakkur shakli bo'lib, inson hayotida beqiyos o'ringa ega ekanligi barchaga ma'lum. Til

insonlarga olamni anglashda, u haqida tasavvurga ega bo'lishda, uni o'rganishda va, albatta, kundalik hayotda o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida foydalanishda xizmat qiladi. Til bor ekan, insonlar o'zlariga kerak bo'lgan axborotni oladi, to'playdi, xotirada saqlab, kerak bo'lganda yana undan foydalanadi. Milliy til orqali talaba yoshlarda milliy til, milliy urf-odatlarning an'analarining saqlanib, sayqallanib, rivojlanib borishi ta'minlanadi. Buni birlgina misol tariqasida ko'rib chiqamiz.

Milliy urf-odatlardan biri, milliy tilda, xalqimizda farzandlar yo'liga chiqish oldidan ota-onalaridan duo oladilar. "Duo-xudoga iltijo qilib, o'zi yoki boshqalar uchun uzoq umr, baxt-saodat, najot tilash yoki yomonlikni qaytarishni so'ralishidir. (O'zbekiston milliy entsiklopediyani 3-tom.-t: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2002-y. 383 bet)

Milliy til va inson his-tuyg'ulari uzviyilagini quyidagi chizmada ko'rish mumkin.



Talaba yoshlarga mashg'ulotlar jarayonida, tadbirlarda, muloqotlarda milliy urf-odatlari an'analar, qadriyatlar milliy tilda singdirib borilsa, o'shanda milliy til, milliy urf-odatlari, his-tuyg'ularimiz namoyon bo'lib, ularning dunyoqarashi, kun sayin o'zgarib o'zligini namoyon etib boradi.

Milliy til - dunyoqarashni, eng muhimi, insonning olamga munosabati, dunyoqarashdagi o'rni, mohiyati, hayotiy o'zligini anglash kabi savollarga javob beradi. Zeroki, falsafaning asosi ham sog'lom aql-tafakkuri va uning rivojlanishiga mos keladigan dunyoqarashni yaratishdir.

(Falsafa) Qomusiy lug'at, "Sharq nashr. Matbaa-aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi. -T.: 2004, 115-b.)

Talaba yoshlarning dunyoqarashini shakllantirib borish uchun professor-o'qituvchilar suhbat, ustozlar o'giti, topshirig'ini o'z vaqtida amalga oshirib borsa, ular o'z milliy tilini,

millatini xalqning ming yilliklar davomida qadriyatlariga nisbatan hurmati yanada oshadi, ular o'zlar ham o'z navbatida yoshlarga bunday boy milliy til boyligini yetkazib beradi.

**Gulbahor DUSHAYEVA,**  
**"Boshlang'ich ta'lim uslubiyati" kafedrasini katta o'qituvchisi**